



**ABU ALI IBN SINONING DUNYO TARIXIDAGI ILMIY
MEROSI**

Abu Ali ibn Sino jamoat salomatlik texnikumi

Funksiyanal Diagnostika yo'nalishi

2-bosqich Talabasi Zokirova Gulasal

zokirjonovagulasal@gmail.com +998 94 837 05 50

Annotatsiya: Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qarib barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Alloma asarlarini o'sha davirda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozgan.

Аннотация: Ибн Сина признан ученым-энциклопедистом в истории современной науки, поскольку он занимался практически всеми существовавшими науками своего времени и писал работы, связанные с ними. Аллома писал свои работы на арабском языке, который в то время был научным языком Ближнего и Среднего Востока, а также некоторые на персидском языке.

Abstract: Ibn Sina is recognized as an encyclopedic scientist in the history of modern science, because he was involved in almost all the existing sciences of his time and wrote works related to them. Alloma wrote his works in Arabic, which was the scientific language of the Near and Middle East at that time, and some in Persian.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot tibbiyot, falsafa, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga oid 450 dan ortiq asar yaratgan. Ularning 242 tasi bizgacha yetib kelgan, – deydi Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Sh.Zokirxo'jayev. – Jahon ilm-fani rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan bu durdona asarlar hamon o'z ahamiyatini



yo‘qotmagan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida tibbiyot taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan. Ushbu asarda buyuk olim amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos solgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2014 yil may oyida Samarqandda tashkil etilgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro anjumanda ham bu alohida ta'kidlandi. Biz Ibn Sino merosini o‘rganish, targ‘ib etish borasida dunyoning ko‘plab mamlakatlari olimlari bilan hamkorlik qilmoqdamiz.

Uning „Al-Qonun fit-tibb” asari nafaqat o‘z davrida , balki keyingi ming yillik davomida ham ilmiy dunyoning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ibn Sino hayoti davomida yaratgan asarlari orqali nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlari uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan . Ushbu maqolada buyuk allomaning hayoti ilmiy faoliyati va madaniy merosi haqida batafsil so‘z yuritamiz. Allomaning to‘liq ismi Abu Ali al-Husayin ibn Abdulloh ibn al Husan ibn Sino bo‘lib kunyosi Abu Alidir . Xalq orasida Shayx ur-rayis nomlari bilan mashxur. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olim, mutafakkir tabib. , faylasuf mantiqshunos Shoyir. U 980-yil Buxoro yaqinidagi Afshana qishlog‘ida amaldor oilasida tug‘uladi. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo‘lgan . Ibn Sino undan tabobat darslarini olib va bu ilimning ko‘p sirlarini o‘rganadi. Abu Ali ibn Sino aytishicha , tabobat ilmi uning uchun qiyin ko‘rilmagan . U ilmning uchun qiyin ko‘rinmaga. Abu Ali ibn Sino, Sharq dunyosining ulug‘ olimi , faylasufi tafakkur va ilmiy izlanishlarning yorqin namoyondasi sifatida tarixda o‘z tabiiy fanlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan shaxsdir. Uning „Al-Qonun fit-tibb” asari nafaqat o‘z davrida , balki keyingi ming yillik davomida ham ilmiy dunyoning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ibn Sino hayoti davomida yaratgan asarlari orqali



nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlari uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan . Ushbu maqolada buyuk allomaning hayoti ilmiy faoliyati va madaniy merosi haqida batafsil so‘z yuritamiz.

Allomaning to‘liq ismi Abu Ali al-Husayin ibn Abdulloh ibn al Husan ibn Sino bo‘lib kunyosi Abu Alidir . Xalq orasida Shayx ur-rayis nomlari bilan mashhur. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olim, mutafakkir tabib. , faylasuf mantiqshunos. U 980-yil Buxoro yaqinidagi Afshana qishlog‘ida amaldor oilasida tug‘uladi.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo‘lgan . Ibn Sino undan tabobat darslarini olib va bu ilimning ko‘p sirlarini o‘rganadi.

Abu Ali ibn Sino aytishicha , tabobat ilmi uning uchun qiyin ko‘rilmagan . U ilmni tez va oson o‘zlashtirib olgan.U tib nazariyasini , xususan anatomiya-inson gavdasi tuzilishini mukammal bilgan.Ibn Sino o‘tkir diagnost edi.Uning ba‘zi tashxis usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.A‘zoga urush orqali diagnost qo‘yishgan.Tabobat tarixida birinchi bo‘lib vabo bilan o‘latni farqlagan , yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlashni takidlagan.Bemorni davolashda olim 3 narsaga:tartib (parxez) dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo‘llash (qon olish , banka qoyish, zuluk solish , huqna va boshqalarga) ahamiyat berish kerakligini aytdi.Ibn Sino kasallikni aytdi . Ibn Sino kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu, jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan.Abu Ali ibn Sino 17 yoshida Buxoro xalqi orasida juda tajribali va mohor tabib sifatida tanildi.Bu xabar podisho saroyiga ham yetib keldi.Shu payitda Buxoro hukumdori Nuh ibn Mansur betob edi.Uni davolash uchun Ibn Sinoni ham saroyga chaqirdilar.Ibn Sino amirini davolaydi va saroy kutubxonasidan foydalanishga amirdan izin so‘raydi . Somoniylar kutubxonasi o‘sha davirda butun O‘rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan bo‘lgan. Ibn Sino bir



necha yil davomida shu kutubxonadan kechayu kunduz kitoblarni mutola qilish bilan bo'lib kutubxonadagi tibga oid kitoblarni qunt bilan o'qib chiqadi. Ibn Sino „Avitsenna ” sifatida g'arbda mashhur bo'lgan . Uning tibbiy merosi , xususan „Tib qonunlari” bo'lsa „Shayx ul rayis” (Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i) nomli asari buyuk faylasufigiga ishoradur.Ibn Sino tibbiyotning umumiy nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan eng yirik asari „Tib qonunlari ”bo'lib , bu asar 5 katta kitobdan iborat va u (1956- yillarda Toshkentda rus va o'zbek tillarida to'la nashir etilgan) . Ularning har biri ma'lum sohani izchil va har tomonlama yoritib beradi.

1-kitobida tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti va vazifalari kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari va sog'liqni saqlash yo'llari kishi anatomiyasi haqida va sog'liqni qanday saqlash kerakligi haqida . Turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi hamda tarqalishida ifloslangan suv va havoning ro'li katta ekanini uqtirib suvni qaytarib yoki filtrlab istemol qilishni tavsiya etadi. Ushbu kitobda inson organizmi va uning tuzilmasi, kasalliklarni aniqlash uchun foydalaniladigan asosiy metodlar va ilk tashxis qo'yish qonunlari ko'rib chiqiladi. Unda kasalliklarning belgilari, sabablarini aniqlashda asosiy tibbiy ko'rsatmalar va tajribalar tavsiflanadi.

2-kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, kasalliklarni davolash bo'yicha qonunlar va metodologiyalar keltirilgan. Bu kitobda turli kasalliklarning davolash usullari, dorilarning ta'siri va ulardan foydalanish usullari haqida so'z boradi. Ushbu kitobda davolashning an'anaviy va zamonaviy usullari, shuningdek, maxsus davolash strategiyalari tavsiflanadi. Ibn Sino simob va uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo'lib tavsiya etadi.Sharobni quvvat kirituvchi va jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi.



3-kitobi ayrim organlarning (hatto soch , tirnoqlarning) kasalliklarni va ularni davolash usullari bayon etiladi. Xususan, bosh miyya , asab, ko'z, quloq, burun, tamoq, qorin, tish, yurak, me'da, jiga, buyrak, kasalliklari batafsil taxlil qilingan . jismoniy salomatlikni saqlash, organizmni mustahkamlash va ruhiy

salomatlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunlarni o'z ichiga oladi. Bunda sog'lom turmush tarzini yaratish, tibbiy profillaktika usullari, jismoniy va ruhiy holatni nazorat qilish ko'rib chiqiladi.

4-kitobi tibbiyotda axloqiy me'yorlar, shifokorlarning xulq-atvori, bemorlar bilan aloqalar va tibbiy xizmatlarni ko'rsatishdagi etik qonunlar tavsiflanadi. Tibbiy etikada bemor huquqlari, maxfiylik, insonparvarlik tamoyillari va shifokorning mas'uliyati haqida gapiriladi.

5-kitobda Murakkab dorilarni organizmga ta'siri, ularni tayyorlash va istemol qilish usullari bayon etilgan.

Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyot o'zaro bog'liq bo'lishi va bir-biriga asoslanmog'i zarur, aks holda u rivoj topa olmaydi va maqsadiga erisha olmaydi. Tib ilmi avvalo ikki qisimga nazariy va amaliy qisimlarga bo'linadi .Ibn Sino ilmiy merosi organish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish sinoshunoslik vujudga keldi. „Tib qonunlari” ning lotincha tarjimasini to'liq holda 40 marta nashir etildi. Agar asar haqiqatan ham tibbiyotning asosiy qonunlari va amaliyotiga asoslangan bo'lsa, uning har bir kitobi tibbiy diagnostika, davolash usullari, sog'liqni saqlash, tibbiy etik va jamoat salomatligi kabi asosiy sohalarga qaratilgan bo'ladi. Bu kitoblar o'z vaqtida tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Har bir kitob ma'lum bir sohada samarali davolash va salomatlikni saqlashning qonuniy tamoyillarini ishlab chiqqan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI. Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODO. 2023.
2. Birinchi Renessans Allomalari . O'quv qo'llanma.140-164 betlar. Rustam Xolmurodov, Murtazo Rahmatov, Bakridin Zaripov, Bahrom Abdullayev, Ikrom Abdullayev, Qalandar Saparov
3. F. I. Salomova, S. A. Sharipova, O. O'rolova. Toshkent tibbiyot akademiyasi. Republican Scientific and Practical Conference. December 16. Abu Ali ibn Sinoning va abu rayhon beruniyning ilmiy merosi
4. KURS ISHI "Abu Ali ibn Sino". Рахимов Жонибек. BUXORO-2014.
5. [Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol & Abdulla Sher. Uyg'oq aql dahosi | Xurshid Davron kutubxonasi](#)